



## THE DEVELOPMENT OF CRAFTSMANSHIP IN THE KOKAND KHANATE UNDER EXTRACTIVE INSTITUTIONS

*Ulugbek Kadirjanovich Yuldashev*

*Teacher at the University of Business and Science*

*e-mail: [ulugbekiuldashev08@gmail.com](mailto:ulugbekiuldashev08@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Kokand Khanate, Fergana Valley, craftsmanship, extractive institutions, taxes, craft workshops, trade shops.

**Received:** 27.04.26

**Accepted:** 28.04.26

**Published:** 29.04.26

**Abstract:** Among the khanates of Central Asia, the Kokand Khanate stood out due to its favorable climate, abundance of land and water resources, population size, and ethnic characteristics. In the cities of the Kokand Khanate, certain achievements were made in the development of economic life and craftsmanship, which contributed to the expansion of both internal and external trade relations. However, the extractive institutions present in the political and economic life of the khanate hindered the further development of craftsmanship and the improvement of the economic conditions of artisans. This article analyzes the state of craftsmanship in the cities of the Kokand Khanate from an institutional perspective. The study employs historical and source analysis methods, focusing on the institutional aspects of data presented in historical sources and scholarly research. Conclusions are drawn regarding the impact of extractive institutions on the economic life of the khanate.

---

## QO‘QON XONLIGIDA EKSTRAKTIV INSTITUTLAR SHAROITIDA HUNARMANDCHILIK TARAQQIYOTI

*Ulugbek Kadirjanovich Yuldashev*

*University of Business and Science o‘qituvchisi*

*e-mail: [ulugbekiuldashev08@gmail.com](mailto:ulugbekiuldashev08@gmail.com)*

*Toshkent, O‘zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Qoʻqon xonligi, Fargʻona vodiysi, hunarmandchilik, ekstraktiv institutlar, soliqlar, hunarmandchilik ustaxonalari, savdo doʻkonlari.

**Annotatsiya:** Oʻrta Osiyo xonliklari orasida Qoʻqon xonligi oʻzining qulay iqlimi, yer va suv resurslariga boyligi, aholi soni va etnik xususiyatlari nuqtayi nazardan ajralib turgan. Qoʻqon xonligida shaharlar, ulardagi iqtisodiy hayot va hunarmandchilik taraqqiyotida maʼlum muvaffaqiyatlarga erishilgan boʻlib, bu xonlikning ichki va tashqi savdo aloqalari kengayishiga xizmat qilgan. Lekin xonlik siyosiy va iqtisodiy hayotida mavjud ekstraktiv institutlar hunarmandchilikning yanada yuksalishiga va hunarmandlarning iqtisodiy ahvoli yaxshilanishiga toʻsqinlik qilgan. Maqolada Qoʻqon xonligi shaharlarida hunarmandchilik ahvoli institutsional nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Ushbu tadqiqotda tarixiy tahlil va manbalar tahlili orqali mavjud tarixiy manbalar va tarixiy tadqiqotlarda keltirilgan maʼlumotlarga institutsional jihatdan eʼtibor qaratiladi. Ekstraktiv institutlarning xonlik iqtisodiy hayotiga taʼsiri boʻyicha xulosalar beriladi.

---

## РАЗВИТИЕ РЕМЕСЛЕННОСТВА В КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ В УСЛОВИЯХ ЭКСТРАКТИВНЫХ ИНСТИТУТОВ

*Улугбек Кадиржанович Юлдашев*  
Преподаватель Университета бизнеса и науки  
e-mail: [ulugbekiuldashev08@gmail.com](mailto:ulugbekiuldashev08@gmail.com)  
Ташкент, Узбекистан

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, Ферганская долина, ремесленничество, экстрактивные институты, налоги, ремесленные мастерские, торговые лавки.

**Аннотация:** Среди ханств Центральной Азии Кокандское ханство выделялось своим благоприятным климатом, богатством земельных и водных ресурсов, численностью населения и этническими особенностями. В городах Кокандского ханства были достигнуты определённые успехи в развитии экономической жизни и ремесленничества, что способствовало расширению внутренних и внешних торговых связей. Однако существовавшие в политической и экономической жизни ханства экстрактивные институты препятствовали дальнейшему развитию ремесленничества и улучшению экономического положения ремесленников.

В статье состояние ремесленничества в городах Кокандского ханства анализируется

с институциональной точки зрения. В рамках данного исследования с использованием исторического и источниковедческого анализа уделяется внимание институциональным аспектам данных, представленных в исторических источниках и научных исследованиях. Делается вывод о влиянии экстрактивных институтов на экономическую жизнь ханства.

---

**Kirish.** Oʻrta Osiyo xonliklari orasida Qoʻqon xonligi oʻziga xos hunarmandchilik turlari taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Fargʻona vodiysi shaharlarida hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivojlanib, ular nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki ichki va tashqi savdo uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan. Oʻz navbatida, ushbu soha koʻp jihatdan xonlikda mavjud siyosiy va iqtisodiy institutlar bilan bogʻliq edi. Ushbu maqolada xonlik iqtisodiy tarixi va hunarmandchilik taraqqiyotiga oid maʼlumotlar institutsional jihatdan tahlil etiladi.

Iqtisodiyot boʻyicha Nobel mukofoti (2024-yil) sovrindorlari Daron Ajemoʻgʻli va Jeysms Robinson tomonidan yaratilgan institutsional yondashuv ushbu tadqiqotda nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Ushbu mualliflar davlatlar taraqqiyoti, aholi farovonligi va inqiroz sabablarini inklyuziv va ekstraktiv institutlar nuqtai nazardan tushuntirgan. Ekstraktiv (inglizcha “to extract” – ajratib olish, tortib olish) institutlardan maqsad – jamiyatning biror qismining daromad va boyliklarini boshqalarga olib berishdan iborat [1, 118]. Ushbu maqolada Qoʻqon xonligi iqtisodiyotida muhim oʻrin tutgan ayrim hunarmandchilik tarmoqlari institutsional jihatdan tahlil etiladi hamda ekstraktiv institutlar sharoitidagi taraqqiyotni tushuntiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Qoʻqon xonligida hunarmandchilik turlari taraqqiyoti koʻplab tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgani, shuningdek, ushbu mavzuni birlamchi manbalar asosida tahlil qilish mumkinligini aytib oʻtish joiz. Qoʻqon xonligi shaharlarida hunarmandchilik taraqqiyoti koʻplab tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. Xonlik iqtisodiy hayotini oʻrganish dastlab Rossiya imperiyasi davrida boshlangan. Jumladan, A.Kun (1876) Fargʻona vodiysi shaharlariga sayohati haqida maʼlumotlarni yozib qoldirgan boʻlib, tarixiy manba sifatida ham ahamiyatga ega. A.Middendorf (1882) ocherklari ham Fargʻona vodiysi shaharlari iqtisodiy tarixi, xususan, hunarmandchilik tarixini oʻrganishda ham muhim ahamiyatga ega. Sovet davri tadqiqotchilaridan R.Nabiyev (1973) esa Qoʻqon xonligining Xudoyorxon davrida iqtisodiy ahvoli, feodal tuzum va hunarmandlarning hayoti haqida muim maʼlumotlar beriladi. Mustaqillik yillarida ham Qoʻqon xonligi shaharlaridagi hunarmandchilik taraqqiyoti, shaharlardagi iqtisodiy ahvol va savdo munosabatlarni oʻrganishga koʻplab tadqiqotchilar oʻz hissasini qoʻshgan (Agzamova, 2013; Madrahimov, 2014). Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, hozirga qadar

mavjud tadqiqotlarda ushbu mavzuga institutsional jihatdan yondashilmagan. Shu sababdan ushbu maqolada ekstraktiv institutlarning hunarmandchilik taraqqiyotiga tas'irini ochib berishga e'tibor qaratildi.

**Metodologiya.** Qo'qon xonligidagi hunarmandchilik tizimini o'rganishda tarixiy-tahliliy metoddan unumli foydalanildi. Tarixiy manbalar va tadqiqotlardagi Farg'ona vodiysi shaharlari hunarmandchiligi tarixiga oid ma'lumotlar tarixiy va institutsional jihatdan tahlil etildi. O'z navbatida, o'sha davrdagi boshqa o'rta asr davlatlari bilan solishtirishda qiyosiy metod qo'llanildi. Xususan, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hunarmandchiligining ayrim jihatlari solishtirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi iqtisodiy holatga siyosiy institutlarning ta'sirini aniqlashdan iborat bo'lganligi sababli institutsional tahlilga ham e'tibor qaratildi. Hunarmandchilik rivojiga ekstraktiv institutlar qanchalik to'sqinlik qilgani hamda shunday holatda ham turli tarmoqlarning rivojlanishi tahlil etildi. Manbalar tahlili metodi orqali xonlik shaharlaridagi hunarmandchilik taraqqiyotiga oid tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar o'rganildi.

**Natijalar.** Qo'qon xonligi iqtisodiy tarixini o'rganish shaharlarda hunarmandchilik turli sohalari rivojlanib borganligini ko'rsatadi. Xususan, to'qimachilik, bo'yoqchilik, kulolchilik, temirchilik, misgarlik, qurolsozlik va qog'oz ishlab chiqarish kabi sohalar taraqqiy etgan. Shaharlarda rivojlangan hunarmandchilik turlaridan biri bo'yoqchilik edi. Bu hunar turi to'qimachilik va boshqa hunarmandchilik sohalari bilan uzviy bog'langan edi. Vodiya bu sohada Namangan yetakchilik qilgan. Bu shaharda ipakni bo'yashda asosan norpus (qora anor) bo'yog'idan foydalanilgan bo'lib, xonlikning turli hududlaridan bu yerga katta miqdorda ipakni bo'yatish uchun olib kelganlar. Qo'qon xonligida O'rta Osiyoning boshqa xonliklari kabi ro'yan (marena) deb nomlangan butasimon o'simlik ildizidan tabiiy qizil rangdagi bo'yoq tayyorlangan va u bilan qizg'in savdo amalga oshirilgan. Bu bo'yoq ham xonlik hududida asosan Namanganda tayyorlangan [2, 29-30]. Ushbu ma'lumotlar bo'yoqchilik tarmog'i xonlikning savdo ehtiyojlari uchun yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Aholi orasida doimo arzon va pishiq sopol idishlarga talab katta edi. Bunday talabni qondirishda kulollarning mehnati o'ta muhim edi. Ular ro'zg'or uchun kerakli turli-tuman idishlar, tandirlar, qurilishda ishlatiladigan koshinli g'ishtlar va h.k. ishlab chiqarganlar. Ular o'z mahsulotlari bilan nafaqat shahar, balki qishloqlar va qo'shni dasht ahlini ham ta'minlar edi. Kulollar yaratgan mahsulotlar Xo'jand shahri misolida XIX asr muallifi 3 guruhga bo'lganligi to'g'risida so'nggi o'rta asr shaharlarini o'rgangan G.Agzamova ma'lumot beradi [3, 101]. Unga ko'ra, birinchi guruhga oddiy tuproqdan tayyorlangan mahsulotlar (tandirlar, xumlar, ko'zalar, ko'zachalar, xumchalar va h.k.); ikkinchi guruhga oddiy tuproqdan tayyorlanib, sirlangan mahsulotlar (sirlangan g'isht-koshinlar, uy-ro'zg'or buyumlari – piyolalar, laganlar va

boshqalar); uchinchi guruhga oq tuproqdan yasalgan va sirlangan fayans (ganch aralash loy) idishlarni kiritish mumkin.

Kulolchilik eng qadimiy hunarlardan bo'lib, o'lkamiz kulollari ko'k, sariq, qora, qizil, oq, zangori ranglarga o'rik yelimi, un, qum, temir kukunini aralashtirib, turli xil bo'yalgan idishlar yasaganlar. Kulol ustalar ko'proq sopol idishlarga o'simliklar tasvirini tushirishga e'tibor qaratganlar. Rishton, Xo'jand, Qo'qon kulollarining mavqei baland edi. Farg'ona vodiysida kulolchilik markazi Rishton shahri hisoblanib, bu yerda tayyorlangan mahsulotlar nafaqat shahar, balki qishloq aholisi ehtiyojini qondirishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Rishtonda idishlarga gul solish san'ati yuksak darajada rivojlangan edi. Bu yerda kulol ustalar ko'p bo'lganligi uchun ular o'rtasida raqobat doimo kuchli bo'lardi. Rishtonda ishlab chiqarilgan sopol idishlar, ayniqsa, bo'yalgan va naqshlangan charx tovoq, nimcharx, obdasta, ko'za, kosa, piyola, yog' idishlari butun O'rta Osiyoda mashhur edi. Xonlikda ko'plab qurilishlar olib borilishi natijasida katta shaharlarda g'isht quyadigan xumdonlar vujudga kelgan. Xususan, Rossiya istilosiga qadar Namangandagi Yangiariq kanalining chap qirg'og'ida g'isht quyuvchi xumdonlar bo'lgan va ularda tayyorlangan g'ishtlardan mahalliy inshootlarni barpo qilishda, madrasa, masjid, karvonsaroy va boshqa qurilish ishlarida keng foydalanilgan [4, 513]. Ushbu dalillar kulolchilikning qadimdan rivojlanib kelgan soha sifatida xonlik iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qo'qon xonligida hunarmandchilik rivojlanishda davom etgan bo'lsa-da, mavjud ekstraktiv siyosiy institutlar hunarmandlar faoliyatiga to'sqinlik qilgan. Hunarmandlarning turli soliq va yig'imlarni to'lashga majburligi ularning iqtisodiy faolligini pasaytirgan. Hunarmandlar faoliyati ko'p bosqichli soliq tizimi bilan qamrab olingan bo'lib, ishlab chiqarish, savdo va taqsimot jarayonlarining barcha bosqichlarida turli soliqlar to'lashga majbur bo'lishgan. A.Kun esdaliklarida berilgan ma'lumotlar ushbu soliq tizimi ekstraktiv xarakterda bo'lganligini tasdiqlaydi. Masalan, xonlikdagi asosiy soliqlardan biri bo'lgan zakot savdodan olingan bo'lib, albatta hunarmandlar o'zlari ishlab chiqargan mahsulotni sotishga to'g'ri kelganda to'lagan. Agar mahsulotni bozorda sotsa, bozor solig'ini to'lashga to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, har bir savdodan olinadigan yig'im mavjud bo'lib, u ham sotuvchi, ham xaridordan olingan. Daryolarni kesib o'tishda olinadigan soliqlar hunarmandlarga ham tegishli bo'lib, ular mahsulotlarini boshqa bir hududga olib borib sotmoqchi bo'lsa to'lashga to'g'ri kelgan. Ayrim soliqlar hunarmandlarning ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir etgan. Xususan, tuz solig'i teri ishlash, oziq-ovqat ishlab chiqarish tarmoqlariga ta'sir etgan. Suvdan foydalanish solig'i esa ishlab chiqarish jarayonida suv ishlatadigan tarmoqlar (to'qimachilik, bo'yoqchilik) kabilarga ta'sir etgan[5, 25]. Hunarmandlar umumiy fiskal bosim ostida bo'lib, bu holat ishlab chiqarishni

rag'batlantirishga emas, ulardan maksimal darajada daromad olishga qaratilgan ekstraktiv institutlar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Bozor ustidan mavjud nazorat ham hunarmandlar faoliyatini cheklagan. Chunki hunarmandchilikning rivoji ularning o'z mahsulotlarini erkin bozor sharoitida sotishiga bog'liq edi. Bozorlarda mavjud yig'imlar esa bunga to'sqinlik qilardi. Eng avvalo, bozorlarga yetib borish uchun daryolardan o'tishda yig'imlar olingan. Masalan, 1874-yil o'tish joylarida olinadigan yig'imlar Pungonda 1452 tanga, Oqjarda 6770 tanga, Chil-Mahramda 14286 tangani tashkil etgan. Bundan tashqari, xon xazinasi uchun har bir kasaba (hunarmandlar uyushmasi) oqsoqoli ma'lum miqdordagi soliqlarni to'lagan. Hunarmandlar sotuvchi va xaridorlar o'rtasida vositachilik qiluvchilarga dalol puli to'lagan. Bozorda esa har bir rasta (maxsus qator) uchun to'lanadigan yig'imlar ham bor edi. Agar 100 tillalik mahsulot sotilsa, sotuvchi va xaridor 7 tangadan to'lagan[6, 3]. Bu xonlikda bozor mexanizmlari cheklanganligi, ekstraktiv institutlar tomonidan narxlar va savdo yo'llari ustidan nazorat o'rnatilganligi, ichki bojlar va to'siqlar savdoni ancha cheklaganligini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, talab va taklif muvozanatini buzadi hamda hunarmandlar faoliyatini cheklaydi. Natijada bozor iqtisodiyoti emas, balki nazorat iqtisodiyoti shakllangan.

Hunarmandlarning ijtimoiy-iqtisodiy maqomining past bo'lganligi, ularning holati ham katta yer egalari bog'liq bo'lgan dehqonlardan unchalik farq qilmaganligini ko'rish mumkin. Turli hunarmandlar xonlar va beklarga qarashli do'konlarda faoliyat ko'rsatishga, ba'zilar esa xon saroyida yashab, unga xizmat qilishiga to'g'ri kelgan. Marg'ilon beki Sulton Murodbek bir dalloldan kelgan xatda do'konlarni turli hunarmandlar bilan to'ldirish zarurligini qayd etgan bo'lsa, xon saroyida xizmat qiluvchilar orasida hunarmandlar va bozor ahli orasidan chiqqan samovarchi, allof (don savdogari), naddof (jun tozalovchi), bofanda (to'quvchi), porado'z (tikuvchi) kabi kasb egalari bo'lgan[7, 88]. Bu hunarmandlarning saroyga va turli beklarga bog'lanib qolganligini, shuningdek, ularning erkin iqtisodiy faoliyati cheklanganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, hunarmandlarning ko'proq saroy ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqarganligini bilib olish mumkin.

**Muhokama.** Yuqoridagi natijalar Qo'qon xonligida hunarmandchilik iqtisodiy faol tarmoqlardan biri bo'lsa-da, siyosiy jihatdan nazoratda ushlab turilganligini ko'rsatadi. Hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishdan boshlab, to uni bozorda sotishgacha bo'lgan jarayonda mavjud bevosita yoki bilvosita turli soliq va yig'imlar, shuningdek, davlat nazoratining kuchliligi ularning iqtisodiy mustaqilligi va faolligini cheklagan. Erkin bozor iqtisodiyoti qonunlarining ishlamasligi raqobatga to'sqinlik qilgan va innovatsiyalar vujudga kelishiga imkon bermagan. Oqibatda, hunarmandchilik ishlab chiqarishi an'anaviy darajada

qolib ketgan, u keng miqyosdagi manufaktura ishlab chiqarishi darajasiga ham ko'tarila olmagan. O'z navbatida, boshqa sohalardagi ekstraktiv institutlar ham hunarmandchilikka o'z ta'sirini o'tkazgan. Xususan, dehqonlar va chorvadorlar daromadlarining ekstraktiv institutlar tomonidan tortib olinishi natijasida ularning hunarmandchilik mahsulotlari sotib olishi uchun qo'shimcha mablag'larga ega bo'lishiga imkon bermagan. Tabiiyki, bozorda ehtiyojlar pastligi hunarmandchilik ishlab chiqarishining yanada rivojlanishiga to'sqinlik qilgan.

**Xulosa.** Qo'qon xonligida hunarmandchilikning ahvoli bevosita mavjud iqtisodiy va siyosiy institutlarga ham bog'liq edi. Ekstraktiv institutlar hunarmandchilik bozor munosabatlari tamoyillari asosida rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Soliqlarning og'irligi, davlat nazoratining kuchliligi, mulk huquqining mustahkam emasligi va savdodagi cheklovlar hunarmandlar faoliyati uchun muammolar keltirib chiqargan. Natijada hunarmandchilik xonlik iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylana olmagan va mavjud iqtisodiy-ijtimoiy tizim doirasida faoliyat ko'rsatishga majbur bo'lgan. Xonlikda asrlar davomida shakllangan yuksak hunarmandchilik an'nalari va resurslar yetarli bo'lsa-da, mavjud institutlar bu sohaning yanada rivojlanishiga to'sqinlik qilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ажемўғли Д., Робинсон Ж. Мамлакатлар таназули сабаблари: кудрат, фаровонлик ва камбағаллик манбалари. – Тошкент: Nihol, 2021.
2. Мадраҳимов З. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. Т.: Yangi nashr, 2014.
3. Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари (XVI-XIX асрнинг ўрталарида). – Тошкент, 2013.
4. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882.
5. Kuhn A. The Province of Ferghana formerly Khanate of Kokand. Translated from the german of the "Russische revue" by F.Henvey. Simla: Government Central Branch Press, 1876.
6. Туркестанские ведомости. №13. 30-го марта 1876 года.
7. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худояр-хана). – Ташкент: Фан, 1973.